

UDK:635.1 /9.

MANZARALI OLXO'RI (PISSARDI) DARAXTLARINI URUG'IDAN
YETISHTIRISH USULLARI

Inomjonov Shuhratbek Nematjonovich
Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li
Yulbasov Avazbek Muhtarovich
O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti
Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: *Maqolada manzarali olxo'ri (Pissardi) ko'chatlarini yetishtirish, urug'laridan unib chiqishi va parvarishlash haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Olxo'ri (Pissardi), mahsus egatlar, ko'chat, nihol, agrotexnik talablar.*

Annotation: *The article contains information about the cultivation, germination and care of decorative plum seedlings (Pissardi).*

Keywords: *Plum (Pissardi), special plants, seedlings, germination, agrotechnical requirements.*

Mamlakatimizda noyob, manzarali daraxtlarini yetishtirish va ularni ko'paytirish, sanoat uchun xom-ashyo bazasini shakllantirish va shaxar ko'chalarini manzarali daraxt va butalar ekish ishlarini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar bajarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4850-son «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarorida noyob manzarali bozorgir ko'chatlarni yetishtirish xom-ashyosini tayyorlash sohasini rivojlantirish bo'yicha alohida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan o'rmon xo'jaligi ko'chatxonalarida hozirgi kunda olxo'ri (Pissardi)ning yetishtirish manzarali daraxt sifatida shaxar ko'chalariga, yashil jamoat parklariga va shaxarlarni bog'lab turuvchi kata yo'llarni bo'ylariga ekish ishlari amalga oshirilmoqda.

Pissardi navning Rosaceae oilasining vakili bo'lib uning xususiyatlari dekorativ ko'rinishga ega yoyilgan toj borligi sababli e'tiborni tortadi bu unga yana bir nom berdi - yoyilgan olxo'ri, balandligi 3-5 metrgacha bo'ladi. Zich yoyilgan toj, barglarining rangi-qizil, qizil bargli olxo'ri pissardi o'zining g'ayrioddiy ko'rinishi tufayli dekorativ funktsiyalarni bajaradi. Tabiiy sharoitda G'arbiy Osiyo tog'larida, Abxaziya, G'arbiy Gruziyada osadi.

Xilma-xillik landshaft dizaynerlari orasida juda mashhur bu landshaft kompozitsiyalarini yaratishda qarama-qarshi ekish sifatida juda yaxshi, chunki yashil daraxtlar va butalar fonida bu qizil bargli go'zallik juda ta'sirli ko'rinadi.

Urug'dan yetishtirish uchun katta va sog'lom namunadagi urug'larni tanlash, ularni saralash kerak. Sentyabr oyida urug'lar terish ishlarini amalga oshirish zarur. Terib olingan urug'larni urug' po'stlogidan ajratib yuviladi va quyosh nuri to'g'ridan to'g'ri tushmaydigan joylarda 5-7 kun davomida qurutish ishlari amalga oshiriladi. Urug'larni ekishdan oldin albatta stratifikatsiyaga qo'yish zarur xisoblanadi. Fevral oyida kuzda tayyor holatga keltirilgan urug'larni 5-7 °C li issiqxona sharoitda 2 xil variantda

1 - variant mahalliy tuproqdan

2 - variant mahalliy chirindi, tuproq va qumdan

tayyorlangan namligi 15-18% li aralashmaga 35-40 kunga stratifikatsiyaga qo'yiladi. Urug'larni xar hafta namligi nazorat qilib borildi. Urug'larni kuzatish jarayonida 30-35 kun stratifikatsiyada turgan urug'larni uchki qismi yorilganini kuzatildi uchlari yorilib nish ko'rinib qolgan urug'larni tayyor holatga keltirib qo'yilgan maxsus ikki xil variantda tayyorlangan 1-variant tuproq 2-variant biogumusda tayyorlangan egatlarimizga aprel oyining ohirida yerga 2-5 sm chuqurlikda ekish ishlari amalga oshirildi.



a)



b)

1 rasm Urug'larni unuvchanlik holati

a) urug'larni stratifikatsiyaga qo'yishdan oldingi holat

b) urug'larni stratifikatsiyaga qo'yilgandan songi holati

O'rmon xo'jaligi limiy-tadqiqot instituti Andijon filiali ilmiy xodimlari Olxo'ri (Pissardi)ning ikki xil variantda 1000 donadan urug'larni ekish ishlarini amalga oshirildi. Urug'lar ekilgan maydonni namlik darajasini hamda uning unuvchanligini hafta davomida nazorat qilib borildi.

1-jadval

Variantlar	28.04.2023	5.05.2023	12.05.2023	19.05.2023	26.05.2023
1-variant	7-11%	15-18%	25-31%	50-54%	81-84%
2-variant	10-13%	23-25%	36-39%	63-68%	91-95%

1-jadval Olxo'ri (Pissardi)ning unib chiqish ko'rsatgichlari

Olxo'ri (Pissardi) urug'larini 28 aprel sanasida tayyor holatga keltirib qo'yilgan maxsus ikki xil variantda 1-variant mahalliy tuproq 2-variant biogomusda tayorlangan egatlarimizga aprel oyining ohirida yerga 2-5 sm chuqurlikda ekish ishlari amalga oshirildi. Ekilgan urug'larimiz xafta davomida kuzatib borildi. Kuzatishimiz natijasida birinchi xaftasida birinchi variantimiz 7-11% urug'larimiz unganini ko'rdik, ikkinchi variantimizda esa bu ko'rsatgich 10-13% ni tashkil qildi. Ikkinchi va uchunchi xaftalarida 1-variantimizda o'rtacha 15-25% urug'larimiz unib chiqqanini ko'rdik ikkinchi variantimizda esa 28-38% urug'larimiz unib chiqqanini. Urug'larimizni asosiy qismi esa to'rtinchi beshinchi xaftasida urug unuvchanlik birinchi variantda 81-84% ikkinchi variantimizda esa, urug'larimizni unib chiqqanini 91-95% ni tashkil etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Fevral oyida kuzda tayyor holatga keltirilgan urug'larni 5-7 0C li issiqxona sharoitda mahalliy chirindi, tuproq va qumdan tayyorlangan namligi 15-18% li aralashmaga 35-40 kunga stratifikatsiyaga qo'yish tavsiya etiladi.
2. Olxo'ri (Pissardi) urug'larini aprel oyining oxirida 2-5 sm chuqurlikda biogomusda tayorlangan egatlarga ekish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mirziyoev Sh.M. PQ-4549-son «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantiriSh, sohada qo'Shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'Shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi»gi Prezident Qarori. - Toshkent, 2019 yil 11 dekabr.
2. Bo'riyev H.Ch. Havaskor bog'bonlari qo'llanma. - T.: Sharq nahhriyoti aksiyadorlik kompaniyasi, 2002. 40-45 b



3. Dimkova S. Химический состав плодов интродуцированных сортов сливы. // Роль сортов и новых технологий в интенсивном садоводстве. – Оrel: Изд-во GNUNIISPK, 2003. – С. 79-80
4. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestriga kiritilgan navlar tavsifi. - Toshkent, 2020.
5. http://www.prunus_domestika/wikipedia/_